
Yangi xususiy klinika — aholi xizmatida

Aholi salomatligini saqlash eng muhim masalalardan biridir. Shu ma'noda so'nggi yillarda mamlakatimizda xususiy tibbiyot muassasalarini tubdan rivojlantirish, ayniqsa, tashxis qo'yish va davolash sohasiga yuqori texnologiyalarni qo'llash ustuvorlik kasb etmoqda. Yana bir muhim jihat shundaki, aholi, jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatishga qaratilgan xizmatlar ko'lami va turlari sezilarli darajada kengaydi. yaxshilandi. Qolaversa, tibbiyotning xususiy sektorlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy tibbiyot uskunalari, maxsus inventar va asboblari bilan jihozlash, sodda qilib aytganda, har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida bir qator sa'y-harakatlar olib borilayotir. Aholi sog'lig'ini muhofaza qilish, sifatli tibbiy yordam ko'rsatishda nodavlat davolash muassasalarining o'rnini tobora oshib bormoqda. Zero, sohada olib borilayotgan islohotlar zahirida ham aynan bemorlarga zamonaviy texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish, odamlar ortiqcha vaqt va mablag' sarflab, poytaxtdagi klinikalarga bormasliklari uchun har bir hududda tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yaxshilashdek muhim vazifalar mujassam. Rishton tumanida ham eng ilg'or texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatadigan xususiy klinikalar soni tobora ko'payib bormoqda. Rishton tumani Farovonlik mahallasida "Doktor Samiev" nomli xususiy klinikasi foydalanishga topshirildi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda tuman hokimligi, mutasaddi tashkilotlar rahbarlari, mehnat faxriylari, sog'liqni saqlash tizimi vakillari, klinika jamoasi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining vakillari ishtirok etishdi. Jahon andozalariga mos ushbu 2 qavatli tibbiy muassasa - ham shifokor, ham tadbirkor Alisher Samiev tomonidan bunyod etilidi. Shifo maskanining umumiy loyiha qiymati 2,2 milliard so'mni tashkil etadi. Bu yerda bemorlarga tashxis qo'yish va davolash uchun malakali vrach va tibbiyot xodimlari jalb etilgan bo'lib, eng zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan, bemorlar va jamoa a'zolari uchun barcha zarur sharoitlar bekamu-ko'st yaratilgan. Mazkur xususiy klinika aholiga 5 yo'nalish bo'yicha xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan bo'lib, bu yerda bir vaqtning o'zida 10 nafardan ortiq bemor yotib davolanishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Yangi xususiy klinikasining ishga tushirilishi hisobiga 20dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

2022-06-18 12:13:07